



O'ZBEKISTONDA IQTISODIY O'SISHGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI

Omondavlatova Fotima

Omondavlatova Zuhra

Denov Tadbirkorlik va Pedagogika Instituti

Iqtisodiyot yo'nalish talabalari

E-mail: @omondavlatovafotima

@omondavlatovazuhra

Tel: +998954707678

Annotatsiya: O'zbekiston Markaziy Osiyo mintaqasida joylashgan bo'lib, iqtisodiyoti sezilarli darajada rivojlanayotgan davlat va so'ngi bir necha yil davomida iqtisodiyotini yuksaltirish uchun keng ko'lamdagi islohotlar amalga oshirilmoqda. Ushbu maqolada mamlakatimiz O'zbekistonda iqtisodiy o'sishni barabar ta'minlashda asosiy siyosiy va ijtimoiy omillar ta'sirini diagramma va jadvallardagi tahlili ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: Iqtisodiy O'sish Iqtisodiyot, YAIM.

Аннотация: Узбекистан расположен в Центральноазиатском регионе и является страной с динамично развивающейся экономикой, в последние годы в которой были реализованы масштабные реформы, направленные на улучшение экономики. В данной статье анализируется влияние основных политических и социальных факторов на обеспечение сбалансированного экономического роста в нашей стране (Узбекистане) в виде диаграмм и таблиц.

Ключевые слова: экономический рост, экономика. ВВП

Abstract: Uzbekistan is located in the Central Asian region is a country with a significantly developing economy and has been implementing large-scale reforms to improve its economy over the past few years. This article examines the impact of the main political and social factors on ensuring balanced economic growth in our country, Uzbekistan, in diagrams and tables.

Keywords economic growth economy. GDP.

Kirish: Iqtisodiy o'sishi iqtisodiyotning rivojlanishi bo'lib, yaratilgan mahsulot va xizmatlarning ko'payib borishini bildiradi. Har bir mamlakatda iqtisodiy o'sishga intiladi, chunki iqtisodiy o'sish birinchidan milliy mahsulot hajmi va daromadning ko'payishi ikkinchidan yangi-yangi ehtiyojlar va imkoniyatlarning paydo b'lishiga uchinchidan resurslardan samarali foydalanishga to'rtinchidan xalqaro bozorda mamlakat obro'sini olib kelishga olib keladi. 2017-yilda Prezidentimiz tashabbusi bilan tashkil etilgan 2017-2021-yillarga mo'ljallangan Harakatlar strategiyasi amaliyotga joriy qilinib, yaxshi samara va natijalar bergandan so'ng, O'zbekiston Respublikasi



Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2022-yil 28-yanvar kuni 2022-2026-yillarda Yangi O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasi to'g'risida "gi PF-60-son IP Farmonni imzoladi. Farmonda 7 bob va 100 maqsaddan iborat strategiya. tuzilgan. Strategiyaning III bobi "Milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash" deb nomlangan va unga iqtisodiyotni progressiv rivojlantirish bo'yicha maqsadlar va vazifalar kiritilgan. "21-maqsad: Iqtisodiyot tarmoqlarida barqaror yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash orqali kelgusi besh yilda aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulotni-1,6 baravar va 2030-yilga borib aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromadni 4000 AQSh dollaridan oshirish hamda "daromadi o'rtachadan yuqori bo'lgan davlatlar qatoriga kirish uchun zamin yaratish.

Iqtisodiyot nazariyasida Iqtisodiy o'sish daromadlar qanday nisbatda iste'mol va investitsiyalarga bo'linishga bog'liq deb qaraladi. Iste'mol hajmi iqtisodiyotning provard maqsadini bildirsa, investitsiyalar hajmining o'zgarishi resusrlar imkoniyatlarning o'sishi va texnik yangiliklarning moddiylashishini anglatadi.



Mikroiqtisodiy tahlil Iqtisodiy o'sish ma'lum bir muddatda (oy, chorak, yil) milliy iqtisodiyotda real ishlab chiqarishning o'sishini anlatadi. Ya'ni Bir oy oldin ishlab chiqarilgan mahsulot miqdori bilan hozirgi oy miqdorini solishtiramiz. Agar ko'proq mahsulot ishlab chiqarilsa — iqtisodiy o'sish bor.

Makroiqtisodiy tahlil ya'ni davlatning butun holatida iqtisodiy o'sish bevosita YAIM, SMM, YMM makroiqtisodiy ko'rsatkichlar mutloq hajmining va aholi jon boshiga to'g'ri keladigan miqdorning o'sishi, sifatning yaxshilanishi va tarkibining takomillashuvida ifodalanadi. Bunda Mamlakatda iqtisodiy o'sishni YAIM, SMM, YMM makroiqtisodiy ko'rsatkichlar hajmining ortishi orqali uning iqtisodiy salohiyatini baholash, aholi jon boshiga real YAIM miqdorining ortishi orqali mamlakat aholisining turmush darajasini taqqoslashda qo'llaniladi.

YAIM bu ma'lum davrda, masalan, bir yilda iqtisodiyotning barcha ishtirokchilari yaratgan mahsulot va xizmatlarning bozor narxlarida hisoblangan summasidir. Uning miqdori, birinchidan, yaratilgan tovar va xizmatlar miqdoriga va ular birligining narxiga bog'liq bo'ladi

Yalpi ichki mahsulot dinamikasi

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2025-yilning yanvar-dekabr oylarida O'zbekiston Respublikasining yalpi ichki mahsuloti (YAIM) hajmi joriy narxlarda 1 849,7 trn so'mni hamda 2024-yilning mos davri bilan taqqoslaganda real o'sish sur'ati 7,7% ni tashkil etdi.



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yalpi ichki mahsulot

Iqtisodiyot faoliyat turlari bo'yicha YAIMning ishlab chiqarish quyidagi jadvalda keltirilgan.

	hajmi, mlrd so'm		o'sish sur'ati%	YAIM o'sishdag hissasi
	2024-yil	2025-yil		
YAIM jami	1535431,7	1849650	107,7	x
Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	1475010,2	1768139	107,7	7,4
qishloq,o'rmon,baliqchilik	272224,4	306294,2	104,4	0,8
sanoat	384377,6	472729,7	106,8	1,7
qurilish	107113,9	129224,1	114	1
savdo,yashash aovqatlanish bo'yicha xizmatlar	176808,3	215494,4	112	1,4
tashish va saqlash ,axborot va aloqa	115533,9	149508,8	114,5	1,1
boshqa xizmatlar	418952,1	494888,2	105,4	1,4
mahsulatlarga sof soliqlar	60421,5	81510,6	107,4	0,3



Iqtisodiy o'sish sur'ati iqtisodiyotning asosiy tarmoqlarida kuzatilgan ijobiy dinamika bilan bog'liqdir. Iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat hajmi YAIM umumiy hajmining 95,6% ini tashkil etdi va 7,7% ga o'sdi YAIM mutlaq o'sishiga ta'siri 7,4 foiz punktni tashkil etdi), Mahsulotlarga sof soliqlarning YAIM tarkibidagi ulushi 4,4% ni tashkil etdi va 7,4% darajasida o'sish qayd etildi YAIM mutlaq o'sishiga ta'siri.

Xulosa

Iqtisodiy o'sish nafaqat mamlakatning yalpi ichki mahsuloti hajmini oshirish, balki jamiyatning barcha qatlamlari uchun farovon hayot sharoitlarini yaratishning asosiy poydevoridir. O'zbekistonda barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashda inson kapitaliga sarmoya kiritish, sanoatni modernizatsiya qilish va raqamli texnologiyalarni keng joriy etish hal qiluvchi ahamiyatga ega. Iqtisodiy islohotlarning samaradorligi bevosita ularning aholi turmush darajasiga ta'siri va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashi bilan o'lchanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. S.S. Gulyamov, R.X. Ergashev, S.N. Xamraeva „Raqamli iqtisodiyot“
2. SH. SHodmonov „iqtisodiyot nazariyasi“ darslik
3. G'.E. Zaxidov, M.T. Asqarova, Z.A. Djumayev, L.F. Amirov H.A. Hakimov “MAKROIQTISODIYOT” darslik
4. O'ZBEKISTON IQTISODIY RIVOJLANISHIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR TAXLILI
Qodirov Asliddinxo'ja Mahammadjon o'g'li
5. https://stat.uz/img/press-relizlar/analitika-vvp_zb-lotin_p95454.pdf
6. <https://lex.uz/ru/docs/-5841053>
7. <https://tadqiqotlar.uz/new/article/view/2913/2737>
8. https://herald.kokanduni.uz/index.php/public_html/article/view/973